

**AT «Aloqabank» Buxoro hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi xodimlari
ishtirokidagi yig'ilishining**

Majlis bayoni №

2026 yil 24 Aprel

Buxoro shahar

Yig'ilish raisi:

A.Jamolov

Yig'ilish ishtirokchilari:

Barcha xodimlar

Kun tartibi:

AT «Aloqabank» Boshqaruvining 2026-yil 21-apreldagi 214F-sonli Farmoyishi .

E SH I T I L D I :




Yig'ilishni AT «Aloqabank» Buxoro HKXKM direktori A.Jamolov ochib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-81-sonli Qarori talablariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025-yildagi PQ-147 sonli «Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi qarori ijrosi bo'yicha bank tizimida korrupsiyani yo'qotish bo'yicha berilgan ko'rsatmalarga xar bir bank xodimi to'liq rioya qilish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish samardorligini xodimlar orasida keng targ'ib qilish va Korrupsiyaga qarshi yo'nalishda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilgan yutuqlar va muammolarni o'rganib borishi lozimligini aytib o'tdi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar, shuningdek jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli ishlar borasida o'z fikr va mulohazalarini bildirib, bank tomonidan ajratiladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 12-fevral 2025-yildagi PQ-62-sonli Qarori, Mahalla loyihasi doirasida ajratiladigan «Biznesga birinchi qadam», «Mening mahallam» va Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlarni maqsadlilikini ta'minlagan holda, hech qanday korrupsion holatga yo'l qo'ymasdan, o'z vaqtida ajratish lozimligini uqtirib o'tdi. Bank tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz munosabatda bo'lish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni sodir etmaslik, xodimlarning mansab yoki lavozim majburiyatlarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligiga yo'l qo'ymaslik, manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiyaviy holatlar haqida har qanday ma'lumotlar to'g'risida o'z rahbariga xabar berish, sohaga oid normativ hujjatlarni to'liq bilish va ularga amal qilish lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Kelgusida korrupsiya holatiga yo'l qoygan mas'ul xodimlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga asosan intizomiy jazo choralari qo'lanilishi to'g'risida qat'iy ogohlantirib o'tildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yig'ilish qaror qiladi:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashi to'g'risida A.Jamolovning nutqi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Korporativ biznes bo'yicha direktor o'rinbosari I.Ibragimov va Chakana biznes bo'yicha direktor o'rinbosari V.Yusupovlar zimmasiga:
 - korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rish;
 - o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan soflik va adolatda o'rnak bo'lish, shuningdek har qanday shakldagi korrupsiyaga zid munosabatini shakllantirishda shaxsiy namunani namoyish qilish;
 - manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiya holatlari haqida har qanday ma'lumotlar to'g'risida xabar berish;
 - bank tizimi xodimlari bilan bog'liq har bir jinoyatni kelgusida qayta takrorlanishini oldini olish maqsadida xodimlar o'rtasida keng muxokama qilib borish;
 - xodimlarning yetarli bilim, ko'nikmalarini, huquqiy savodxonligini va ish tajribalarini oshirib borishi uchun, ular o'rtasida bank sohasi bilan bog'liq jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan tadbirlar, jumladan ichki nazorat tadbirlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.
3. Mazkur qarorni nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.



Yig'ilish raisi:

A. Jamolov
E. Murodova

A.Jamolov

Bayonnomani olib bordi:

E.Murodova